

TASAVVUF TA'LIMOTIDA MA'RIFAT KONTSEPTSIYASI TALQINI

*O'raqboyeva Durдона Farhodjon qizi
Mo'sinjonova Oyjaxon G'ayratjon qizi
Farg'ona Davlat Universiteti talabalari*

Annotatsiya: Tasavvuf ta'limotida ma'rifat kontseptsiyasi ahamiyatli o'rin egallaydi. Ma'rifat, tasavvufiy tafakkur va amalning markazi hisoblanadi. Bu maqolada ma'rifatning tasavvufiy ma'noi, uning ahamiyati, ma'nosi, va muhimliklari ko'rib chiqiladi. Ma'rifat, ilm, vijdon, va amalning birga integratsiyasini ifodalaydi. Tasavvufiy ustozlar tarafdorlari uchun ma'rifat, Yorqinlik va ilmiy-oddiy bilimning ortasidagi eng yuqori darajadagi bilishni ifodalaydi. Ma'rifat, kulgili bilimning o'zining yuqori bosqichiga tushadi, unda kulgili, oddiy, va ilmiy o'qishlar birgalikda mavjud bo'ladi.

Аннотация: Концепция просветления занимает важное место в суфизме. Просветление является центром мистической мысли и практики. В данной статье рассматривается мистический смысл просветления, его значение, смысл и значение. Просвещение представляет собой интеграцию знания, совести и действия. Для последователей мистических мастеров просветление представляет собой высший уровень знания между Просвещением и научным знанием. Просвещение спускается на высшую ступень комического знания, на которой сосуществуют комическое, простое и научное прочтение.

Abstract: The concept of enlightenment occupies an important place in Sufism. Enlightenment is the center of mystical thought and practice. This article examines the mystical meaning of enlightenment, its significance, meaning, and importance. Enlightenment represents the integration of knowledge, conscience, and action. For followers of mystical masters, enlightenment represents the highest level of knowledge between Enlightenment and scientific knowledge. Enlightenment descends to its highest level of comic knowledge, in which comic, simple, and scientific readings coexist.

Kalit so'zlar: E'tirof, teosofiya, zohiriy, botiniy, ilohshunoslik, irfon, kasrat

Ключевые слова: Признание, теософия, внешний, теология, знание, изобилие

Key words: Recognition, manifest, theosophy, theology, knowledge, abundance

Tasavvuf madaniyatimiz tarixidagi g'aroyib bir fan bo'lib, o'ziga xos yo'nalish va an'analarga egadir. U ko'pincha adabiyot va falsafa g'oyalarini irfoniy tarzda, ya'ni ma'rifiy qiyofada aks ettiradi, shu bois ba'zan mazkur ilmlar qatorida tilga olinib, ularning global bir qismi sanaladi. Masalan, X asrdan boshlab tasavvuf professional she'riyat g'oyalari bilan qo'shib ketib, uning bir yo'la mazmunini aks ettirdi, adabiyotning eng go'zal va nafis tuyg'usi-orifona yo'nalishini boshlab berdi.

Tasavvufiy tarixda ma'rifatning mohiyati, insonning butunlikni tushunish, o'z-o'zini bilish, va ilmiy-oddiy bilim bilan ma'naviy to'qnashuvini belgilash bilan bog'liqdir. Ilohshunoslik ilmi teosofiya bo'lgan irfon yoki ma'rifat («ma'rifat» so'zi arabcha «arafa» – bilmoq so'zidan yasalgan) tariqatning hosilasi va bevosita davomidir. Xo'sh, ma'rifatning nishonasi nima, qanday kishi ma'rifatga noil bo'la oladi? So'fiylar nazarida ma'rifat fikrdan oldin ketadigan va shubhaga zarracha asos qoldirmaydigan ilmdir. Ma'rifat ilmi botiniy ilm deb ham yuritilgan. Chunki tasavvuf ahli dunyoviy va diniy ilmlarni birga qo'shib, «zohiriy ilmlar» deb ataganlar. Ularning uqtirishicha, zohiriy ilmlar bilan Xudoni bilish qiyin. Biroq, boshqa bir nuqtai nazar ham bor: garchi zohiriy bilimlar Haq taolo asrorini anglashga yaroqsiz bo'lsa-da, lekin dunyoni bilish Ollohni bilishning birinchi bosqichi, ya'ni Ollohni bilish dunyoni bilishdan boshlanishi kerak, chunki dunyo – kasrat ko'plik olami, Ollohning ijodi. Uning sifatlari, qudratini namoyon etib turadigan ko'zgu. Tasavvuf nazariyotchilaridan biri Abdurazzoq Koshoniy Ibn Arabiy qarashlariga suyanib, ma'rifatga bunday ta'rif bergan: «Ma'rifat muxtasar ilmlarni tafsilotlar

suratida tanimoqdir, ilohiy ma'rifat ilohiy zot va sifatlarni ahvol va hodisalar tafsili va nuzul amrlar suratida tanish demak».

Ilohiy ma'rifatni egallash martabalari esa quyidagicha:

1. Solik har bir narsani ko'rganda, uni Mutlaq foilning asari deb bilsin.
2. Mutlaq foildan bo'lgan har bir asarni ko'rganda tasavvuf va taxayyul bilan Mutlaq foil sifatlaridan qaysi sifati zuhuri ekanligini anglab etsin.
3. Haq murodi-maqsadini har bir sifat tajallisida (porlashida) anglab etsin (tanisin).
4. Solik ilohiy Ilm suratini o'zining ma'rifati suratida tanisin va o'zini ilmu ma'rifat, balki vujudan ham soqit etsin.

Tasavvufshunoslik tarixida ayrim g'arb olimlari bilan islom mutasavviflarining qarashlari o'rtasida ziddiyatlar bor. Tasavvuf islomdan tashqarida deyuvchilar uni islomga qarshi qo'yish yo'lidan boradilar va mustaqil ta'limot sifatida gushuntirmoqchi bo'ladilar. Mumtoz tasavvufshunoslik esa tasavvuf islomning ichida paydo bo'lgan, uning «vatani» Qur'oni karimdir, chunki u zohiriy ilm (ilmi qol) emas, balki ilmi holdir deb tushuntiradi. Shuning uchun uning bosh omili farz amallarini talab etuvchi shariatning bosh kitobi Kalomulloqdir. Mutasavvif o'z ibodatiga, Olohga bo'lgan sevgisiga teskari kelmagan dunyodan yuz o'girmaydi. U ibodat payti ibodatini ado etadi, avrod (duolar) payti avrod o'qish bilan mashg'ul bo'ladi, ish paytida ishlaydi. Ishlashdan maqsad shon-shuhrat, mansab, mavqe, boylik emas, balki insonlarga xizmat etish, ommaga foyda keltirishdir. Zero, Hadisi sharifda aytilganidek, «Insonlarning yaxshisi insonlarga naf' keltiruvchilardir». Chunki omma manfaatini o'ylash ham ibodatga kiradi: «Dunyoni ko'r, sayr qil, ichiga kir, ammo dunyo sening ichingga kirmasin». Tasavvuf tarixida milodiy VIII asrlarga kelib, Saodat asrini qo'msash, payg'ambarlik sifatlarini targ'ib qilish, bora-bora zuhd va taqvoni kuchaytirish lozim ko'rildi. Hali "so'fiy" so'zi urf bo'lmay turib, zohid va obidlarda dastlabki so'fiylik belgilari zohir bo'ldi. "Obid" ibodat hilishga, taqvoga zo'r bergan bo'lsa, zohid dunyo lazzatlaridan o'zini parhez qilishi bilan tasavvuf ahliga yaqin turadi. Ulardagi farq halol va haromta munosabatda ko'rinadi. Obid fikricha, Qur'onda halollangan narsalargina halol, zohid fikriga ko'ra, Qur'oni karimda tilga olingan narsalar bilan birga Payg'ambarimiz o'z hayotlari davrida halol deb bilgan narsalar ham haloldir. Keyinroq buning qatoriga mehnat tufayli yaratilgan va erishilgan narsalar halollik belgisi sifatida qo'shilgan. Ibrohim Adham tarixi shuni ko'rsatadiki, sahrodagi o'tin yoki daryodagi suv hech kimniki (yolg'iz Olohga tegishli) emas, uni olib kelib bozorda sotsa, o'z mehnatinigina bozorda sotgan sanaladi, buning evaziga kelgan taom haloldir.

REFERENCES:

1. Abu Abdulloh Buxoriy. Al-jomi' as-sahix. 1-2 jildlar. - T.: O'zbekistan Milliy ensiklopediyasi ilmiy nashriyoti, 2008.
2. Islom tasavvufi manbalari. Ilmiy majmua. (Nashrga gayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi H. Boltaboov). - T.: O'qituvchi, 2005.
3. Is'hoqov Yo. Naqshbandiya ta'limoti va o'zbek adabiyoti. - T.: 2002.
4. Jaloliddin Rumi. Ma'naviy masnaviy. I -6 kitob. - T., 1999-2005.
5. Komilov N. Najmiddin Kubro. Risola. — T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995. — B.29
6. Sirojiddinov Sh. O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.
7. Фахруддин Али Сафий. Рашахоту айни-л-хаёт. / Таржимон Домла Худойберган ибн Бекмухаммад. (Нашрга тайёрловчилар: Махмуд Хасаний, Бахриддин Умрзоқ) — Т.: Абу Али ибн Сино, 2004. — Б.85 —265.
8. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/najmiddin-komilov-tasavvuf-4-marifat-va-haqiqat.html>
9. www.ziyoneT.uz